



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
UCHQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 26 - fevral

123-6-87-Q/22

Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumandagi dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi 101-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Uchqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 18-fevraldagi 27-sonli xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Uchqo‘rg‘on tumanida dafn etish joylarini saqlash qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Namangan viloyati Adliya Boshqarmasining 2022-yil 8-fevraldagi 1-3-8/27-sonli taqdimnomasining ijrosi ta‘minlansin.
4. Uchqo‘rg‘on tuman hokimining 05.12.2015-yildagi 1242-son qarori bekor qilinsin.
5. Uchqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi hamda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi va qurilish bo‘limi:
tumandagi barcha qabristonlarda dafn etish joylarini saqlash qoidalarini bir xilda ijro etilishini;
mazkur qoidalarda belgilangan normalarni aholi o‘rtasida keng yoritilishini ta‘minlansin.
6. Mazkur qaror tuman hokimligining “Yorqin hayot” gazetasining navbatdagi sonida rasman e‘lon qilinsin va bir kun muddatda hokimlikning uchkurgan.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
7. Ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
8. Ushbu qarordan norozi shaxslar belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Sobitxo‘jayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Rizzayev J. N.

Uchqo'rg'on tuman hokimining
2022 yil 26 fevraldagi
123-6-87-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uchqo'rg'on tumanida dafn etish joylarini saqlash qoidalarini

I. Umumiy qoidalar

1. Uchqo'rg'on tumanidagi dafn etish joylarini saqlash qoidalarini (keyingi o'rinlarda – Qoidalar) tumandagi barcha dafn etish joylarini (keyingi o'rinlarda – qabriston) belgilangan tartibda saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Qabristonlarni obodonlashtirish, saqlash va ulardan foydalanish, dafn etish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bevosita faoliyat Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan viloyatning mahalliy aholisi, shuningdek boshqa millatlar va xalqlarning mavjud an'analari, urf-odatlar va udumlariga muvofiq amalga oshiriladi.

II. Qabristonlarni saqlash

3. Tumandagi barcha qabristonlar Uchqo'rg'on tuman hokimligining bevosita tasarrufida bo'lib, hokimlikka qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish majburiyati yuklanadi.

4. Tumandagi qabristonlarni obodonlashtirish obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish, dafn etish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bevosita faoliyat Uchqo'rg'on tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Har bir qabriston qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan meyorlar bo'yicha tegishli xodimlarga ega bo'lishi kerak.

6. Tumandagi qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta'mirlash, ularni zarur darajada saqlash mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilib, xarajatlarning alohida moddasi bo'yicha mablag'lar ajratiladi.

Go'r qazish va marosim xizmatlari bo'yicha ishchilarga ega bo'lish ko'rsatilgan pulli xizmatlar uchun aholidan tushgan mablag'lar hisobidan, viloyat yoki Uchqo'rg'on tuman hokimining tegishli qarori bilan belgilanadigan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuningdek, qabristonlarni saqlash va obodonlashtirishda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan foydalaniladi.

Qabristonlarni obodonlashtirish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'magida hashar yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

7. Qabristonga asosiy kirish joyida (ichki tomonida) quyidagilar o'rnatilgan bo'lishi kerak:

ma'muriy va boshqa binolar, yo'llar, xiyobonlar, tarixiy va memorial qabrlar, jamoat hojatxonalari va boshqa obyektlarning joylashishi belgilangan holda qabristonning sxematik tarxi;

qabristonning ish jadvali (ziyosat qilish qoidalarini) va boshqa yo'l-yo'riq hujjatlari qo'yilgan taxta;

manzillari va aloqa bog'lash telefonlari ko'rsatilgan holda Uchqo'rg'on tuman obodonlashtirish boshqarmasi va qabriston ma'muriyati to'g'risidagi ma'lumotlar.

8. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining taklifiga asosan tumandagi barcha qabristonlar ziyoratlar va dafnlar uchun bahor va kuz oylarida har kuni soat 06:00dan 19:00gacha, yoz oyida har kuni soat 05:00dan 20:00gacha, qish oyida 07:00dan 18:00gacha

ochiq hisoblanadi.

Tumandagi qabristonlarni ochish va yopish vaqtlarini ularning diniy konfessiya va mahalliy an'analarga mansubligiga bog'liq holda tuman obodonlashtirish boshqarmasining taklifi asosida o'zgartirilishi mumkin.

9. Qabristonlardagi qabrlar va boshqa joylarga turli xil zarar yetkazilishini oldini olish maqsadida tumandagi barcha qabristonlarga 7 yoshga to'lmagan bolalar faqat ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (vasiy, homiy, patronat va boshqalar) yohud boshqa voyaga yetganlar hamrohligida kiritiladi.

9. Qabriston hududida quyidagilar ta'qiqlanadi:

jamoat tartibi va sokinlikni buzish;

mast-alast, giyohvandlik va boshqa xil kayflar holatida bo'lish;

qabr usti yodgorliklariga va yashil o'simliklarga shikast yetkazish;

quruq o't, barg, shox-shabba va daraxtlarning shoxchalarini yoqish;

mol va boshqa uy hayvonlarini boqish;

mevali ko'chatlar o'tqazish;

qishloq xo'jaligi ekinlari o'stirish.

10. Tumandagi barcha qabristonlarda qabriston ma'muriyati tomonidan quyidagilar yuritilishi kerak:

qabrlarni ro'yxatdan o'tkazish va qabr usti yodgorliklarini ro'yxatdan o'tkazishning raqamlangan va ip bilan tikilgan daftarlari;

hujjatlar tikib qo'yiladigan yig'majild.

Dafn etishni amalga oshirish huquqini beradigan barcha hujjatlar belgilangan tartibda tikilishi va saqlanishi kerak.

11. Tuman obodonlashtirish boshqarmasii va qabristonlarning ma'muriyati quyidagilarni ta'minlashi shart:

qabriston hududida zarur darajadagi tartibni ta'minlash va mazkur Qoidalar hamda boshqa qonun hujjatlarining talablarini qat'iy bajarish;

bosh xiyobon, asosiy va ikkinchi darajali yo'llarda to'siqsiz yurish va o'tish imkoniyatini (qordan tozalash, muzni parchalash, qum sepish va shu kabilarni) ta'minlash;

eskirgan (qurigan) daraxtlarning ag'darilishi va qabr usti yodgorliklarini shikastlashiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning o'z vaqtida kesilishini ta'minlash;

umumiy foydalanish joylarini toza saqlash, xiyobonlar bo'ylab maishiy chiqindilar uchun maxsus yashik va qutilar o'rnatish, maishiy chiqindilarning qabriston hududidan o'z vaqtida olib chiqilishini ta'minlash;

muhandislik inshootlarining zarur darajada ishlashini ta'minlash, tashqi to'siq, bino va inshootlar, yo'llar, muhandislik tarmoqlari va inshootlarining joriy va mukammal ta'mirlanishini amalga oshirish hamda ko'kalamzorlashtirish;

barcha turdagi yashil o'simliklarni sug'orish va parvarishlashni ta'minlash, ularni yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlarga qarshi kurashish;

fuqarolarga (tashkilotlarga) ularning buyurtmanomalariga ko'ra dafn uchun uchastkalarini

bepul berish;

marhumlarni go‘r qazish me‘yorlari va qoidalariga rioya etgan holda dafn etishni ta‘minlash;

qabrning ro‘yxat raqamini ko‘rsatilgan beton ustunga o‘rnatish;

anjomlarning (belkurak, panshaxa, paqir, xokandoz, supurgi, zambil va hokazolarning) yetarli miqdorda bo‘lishini va ularning fuqarolarga qabrlarga qarash uchun bepul (tilxat bilan) berilishini ta‘minlash;

qabristonda zarur darajadagi tartibni ta‘minlash bo‘yicha, shu jumladan umumxalq hashari, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin aloqada bo‘lish;

xizmatlar uchun qat‘iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibiga, hududni ko‘kalamzorlashtirish uchun daraxt va butalarning turlarini to‘g‘ri tanlashga rioya etilishini nazorat qilish;

dafn etilganning qarindoshlariga eskirib ketgan qabr usti yodgorligi to‘g‘risida yozma xabar qilish va uni tuzatishni talab qilish;

go‘r qazuvchi ishchilar hamda marhumlarni yuvuvchi va kiyintiruvchi ishchilarga sanitariya qoidalarini hamda diniy va mahalliy an‘analarni hisobga olib me‘yorlarni qat‘iyan bajarigan holda ishlarni bajarishning xavfsiz usullarini o‘rgatishni tashkil qilish;

qabr usti yodgorliklarining saqlanishini ta‘minlash, ular o‘g‘irlangan, buzilgan, vayron qilingan taqdirda huquqni muhofaza qilish organlarini va yodgorliklarning egalarini xabardor qilish;

yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash, yong‘inga qarshi shchitlarni zarur miqdorda yong‘inga qarshi anjomlar bilan butlash;

qabristonning butun hududini har yili kamida ikki marta har tomonlama supurib-sidirishni amalga oshirish.

12. Tumandagi qabristonlar xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolar (tashkilotlar) quyidagi huquqlarga ega:

tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun bepul uchastka olish;

sanitariya qoidalari hamda boshqa qoidalar va me‘yorlarga zid bo‘lmagan diniy marosimlar va mahalliy an‘analarga rioya etgan holda dafn etish udumini bajarish;

marosim xizmatlaridan foydalanish va ularga belgilangan tariflar bo‘yicha haq to‘lash;

buyurtirilgan xizmatlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini qabriston ma‘muriyatidan talab qilish;

qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan bepul foydalanish;

tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda yaqinlari va qarindoshlarining qabrlariga qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish.

III. Qabrlarni saqlash va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish

13. Dafn etishni amalga oshirgan fuqarolar va tashkilotlar qabrlar hamda qabr usti yodgorliklarini zarur holatda saqlashi shart.

14. Alohida dafn etishga ajratilgan uchastka doirasida, tuman obodonlashtirish boshqarmasi va qabriston ma'muriyati bilan kelishgan holda, uzunligi 1,5 metr, eni 1 metr va balandligi 0,5 metr (qabr ustidagi tuproq tepaligi balandligi darajasida), yozuvlar uchun vertikal plitaning balandligi 1 metrgacha bo'lgan o'lchamda qabr usti yodgorliklarini o'rnatish (qurish)ga yo'l qo'yiladi (yer osti suvlari sathi yuqori bo'lgan yer yuzasida "sag'ana" ko'rinishida barpo etiladigan musulmon qabrlaridan tashqari).

Qabr atrofida metallardan yasalgan va boshqa to'siqlarni o'rnatish (o'simliklardan iborat yashil to'siqlardan tashqari), qo'shni qabrlarning hududlarini va bo'sh yer uchastkalarini egallab oladigan qabr usti yodgorliklarini barpo etish taqiqlanadi.

15. Qabr usti yodgorliklarini dafn etish chog'ida qilingan tuproq ko'tarma cho'kkanidan keyin, qismlarga ajratish — yig'ish mumkinligini nazarda tutadigan zarur poydevorlar barpo etgan holda o'rnatish tavsiya etiladi.

16. Byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatishga faqat loyiha-smeta hujjatlari hamda Namangan viloyati hokimining qarori mavjud bo'lgandagina ruxsat beriladi.

17. Qabr usti yodgorliklarining o'lchamlari va joylashtirilishi, shuningdek daraxt va butalar o'tqazish oldindan qabriston ma'muriyati bilan kelishiladi.

18. Qabr usti yodgorliklarining o'rnatilishi qabriston ma'muriyati tomonidan qabr usti yodgorliklarini ro'yxatdan o'tkazish daftarida ro'yxatdan o'tkazilib, unda qabrning sektori, uchastkasi, qatori va raqami, dafn etilgan kishining familiyasi, ismi-sharifi, o'rnatilgan sana, yodgorlikning qisqacha tavsifi, tayyorlovchi, uni o'rnatgan shaxslarning manzil va familiyalari ko'rsatiladi.

19. Barcha qabr usti yodgorliklari ularni o'rnatgan fuqarolar va tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Qabriston ma'muriyati tashabbusi bilan qabr usti yodgorliklarini buzib tashlashga yo'l qo'yilmaydi, qabriston Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori bilan tasdiqlangan Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o'rnatish tartibi to'g'risidagi nizomning 18-bandiga ko'ra yopilayotgan (ko'chirilayotgan), qarindoshlarning eskirib ketgan qabr usti yodgorliklarini tuzatishdan bosh tortgan, ular belgilangan tartibda egasiz deb topilgan hollar bundan mustasno. Qabr usti yodgorliklarini buzib tashlash qabr usti yodgorliklarining elementlari albatta tavsiflangan, buzib tashlash dalolatnomasi rasmiylashtirilgan holda qabriston ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

20. Uchqo'rg'on tuman hokimligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra rahbarlar va taniqli davlat arboblarning qabrlari va qabr usti yodgorliklarini, tarixiy obidalarni namunali tartibda saqlash mahalliy budjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

21. Tumandagi barcha qabristonlar ma'muriyati yodgorliklardagi yozuvlarning mazmunini nazorat qilishi, ularda o'lim to'g'risidagi hujjatlardagi ma'lumotlarga nomuvofiqliklar bo'lishiga yo'l qo'ymasligi shart.

IV. Yakunlovchi qoidalar

22. Ushbu Qoidalar bajarilishini nazorat qilish tuman hokimligi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi va barcha qabristonlar ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

23. Mazkur Qoidalarda belgilangan talablarning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.